KUN MAVZULARI

Özbekistonda elektr ta’minotida uzilishlar - Tojikistonda elektr uzatish tarmoği tayanchi quladi


Noyabr 19, 2026



19-noyabr kuni ertalab Tojikistonda Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasidan Özbekistonning Farğona vodiysiga elektr energiyasi uzatadigan yuqori kuchlanishli liniyaning tayanchi quladi. Avariya oqibatida Özbekistonning qator tumanlarida elektr ta’minotida uzilishlar kuzatildi. Ikki mamlakat energetiklari liniyani tiklash uchun birgalikda ish olib bormoqda.

Özbekiston Energetika vazirligi xabariga köra, avariya soat 6:19 da Tojikiston hududidan ötuvchi 500 kV kuchlanishli L-503 liniyasida yuz bergan. Vazirlikning dastlabki

ma’lumotiga köra, relyefi murakkab adirlik hududda noqulay ob-havo tufayli liniya tayanchlaridan biri qulagan.



avariya oqibatlari bartaraf etilmoqda

Bugun, 19-noyabr kuni soat 06:19 da Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasidan Farg‘ona vodiysi viloyatlariga elektr energiyasi uzatuvchi, Tojikiston Respublikasi hududidan ötuvçi 500 kV kuçlanişli “L-503” elektr uzatiş tarmoğida noqulay ob-havo şaroiti tufayli avariyaviy uziliş yuz berdi.

Dastlabki ma’lumotlarga köra, noqulay ob-havo ta’sirida murakkab relyefli adirlik hududida joylaşgan elektr uzatiş tarmoği tayançlaridan biri qulagan. Natijada avtomatik himoya tizimi işga tuşib, mazkur tarmoq orqali elektr energiyasi uzatilişi vaqtinça töxtagan. Bu esa ayrim iste’molçilarning elektr ta’minotida uzilişlarga sabab bölgan.

Ayni paytda “Özbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ rahbariyati boşçiligidagi mutaxassislar hamda avariya-tiklaş brigadalari hodisa joyiga safarbar etilgan. Tojikiston Respublikasining tegişli taşkilotlari bilan hamkorlikda avariya oqibatlarini bartaraf etiş va elektr uzatiş tarmoği faoliyatini tiklaş böyiça tezkor işlar olib borilmoqda.

Ta’mirlaş-tiklaş işlari yakunlangunga qadar Farg‘ona vodiysi viloyatlarining ayrim hududlarida elektr ta’minotiga vaqtinçalik çeklovlar kiritiladi.

*Ma’lumot uçun, **Farg‘ona vodiysi viloyatlariga elektr energiyasi boşqa elektr uzatiş tarmoqlari orqali ham yetkazib beriladi.** Xususan, Farg‘ona viloyatiga Toşkent viloyatidagi “Yangi Angren” issiqlik elektr stansiyasidan çiquvçi 500 kV kuçlanişli “L-524” elektr uzatiş tarmoği orqali ham elektr energiyasi uzatiladi.*

Vaziyat Energetika vazirligining doimiy nazoratida. Elektr ta’minotidagi uzilişlarni imkon qadar qisqa

Shundan söng himoya tizimi avtomatik ishga tushdi va liniya orqali elektr energiyasi uzatish vaqtincha töxtadi.

Avariya joyiga «Özbekiston milliy elektr tarmoqlari» kompaniyasi mutaxassislari yuborildi. Ular Tojikiston energetika tashkilotlari bilan birga liniyaning shikastlangan qismini tiklamoqda.

Ta’mirlash ishlari yakunlanguniga qadar Farğona, Andijon va Namangan viloyatlarining ayrim tumanlarida elektr ta’minoti vaqtincha cheklanishi mumkin. Vodiyga boshqa liniyalar orqali elektr energiyasi yetkazib berish davom etmoqda. Jumladan, Farğona viloyati Toshkent viloyatidagi Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasidan 500 kV kuchlanishli L-524 liniyasi orqali ham elektr energiyasi oladi.

Özbekiston Energetika vazirligi shikastlangan liniya qachon töliq ishga tushirilishini ma’lum qilmadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining energetika tizimlari tarixan bir-biriga boğlangan. Mintaqaning yagona energetika tizimi 1960-yillardan boshlab shakllangan. Bu tizim elektr energiyasini asosan gidroelektr stansiyalarida yoki issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqaradigan mamlakatlar örtasida elektr ta’minotini muvofiqlashtirish imkonini bergan. 1970-yillarda 500 kV kuchlanishli liniyalar mamlakatlarning energetika tizimlarini yagona energetika halqasiga birlashtirgan.

Tojikiston 2009-yilda Markaziy Osiyoning yagona energetika tizimidan uzilgan. Keyinchalik mamlakat mintaqaviy tarmoq bilan parallel ishlashni tiklashga kirishgan. Osiyo taraqqiyot banki qöllab-quvvatlayotgan qayta ulanish loyihasi Özbekiston energetika tizimi bilan aloqalarni tiklashni közda tutadi.

Ozodlik radiosi © 2026 RFE/RL, Inc. | Barça huquqlar himoyalangan.